

**MAKTABLARDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY
RIVOJLANISH SOATLARINI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI
TAKOMILASHTIRISH**

Botirov Hamid Xakimovich

Yuridik fanlari nomzodi, dotsent.

Temirova Rushana Ravshan qizi

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15478413>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktablarda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanish soatlarini tashkil etish jarayonlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Xususan, o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlar, metodik innovatsiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatlarini tizimli tashkil etish muhimligi ta'kidlanadi. Maqolada kasbiy rivojlanish soatlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar, amaliy tavsiyalar hamda ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqilgan takliflar keltirilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan islohotlarni samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi malakasi, kasbiy rivojlanish, metodik innovatsiyalar, pedagogik kompetensiya, ta'lim sifati, kasbiy rivojlanish soatlari, AKT, zamonaviy metodlar

Аннотация. В данной статье освещены вопросы совершенствования процессов организации часов профессионального развития учителей начальных классов в школах. В частности, подчеркивается важность системной организации деятельности, направленной на освоение современного педагогического подхода, методических инноваций и информационно-коммуникационных технологий. В статье представлены механизмы, практические рекомендации и предложения, разработанные на основе передового опыта, способствующие повышению эффективности часов профессионального развития. Результаты исследования имеют важное значение для эффективной реализации реформ, направленных на повышение квалификации учителей начальных классов и улучшение качества образования.

Ключевые слова: начальное образование, квалификация учителя, профессиональное развитие, методические инновации, педагогическая компетентность, качество образования, часы профессионального развития, ИКТ, современные методы

Abstract. This article explores the issues related to improving the organization of professional development hours for primary school teachers. In particular, it emphasizes the importance of systematically organizing activities aimed at mastering modern pedagogical approaches, methodological innovations, and information and communication technologies. The article presents mechanisms, practical recommendations, and proposals developed based on advanced experiences to enhance the effectiveness of professional development hours. The research findings play a significant role in effectively implementing reforms aimed at improving the qualifications of primary school teachers and enhancing the quality of education.

Keywords: primary education, teacher qualification, professional development, methodological innovations, pedagogical competence, quality of education, professional development hours, ICT, modern methods

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar maktab o'qituvchilarining, xususan, boshlang'ich sinf pedagoglarining kasbiy mahorati va malakasini muntazam oshirib borishni dolzarb vazifa sifatida ilgari surmoqda. Chunki boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keyingi bilim olish jarayonlariga mustahkam poydevor yaratadi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

O'qituvchilarning kasbiy rivojlanish soatlari ular uchun nazariy va amaliy bilimlarni yangilash, pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish, shuningdek, ilg'or tajribalarni o'rganish imkonini beradi. Ammo bu jarayonning samarali tashkil etilishi, rejalashtirilgan va tizimli ravishda olib borilishi zarur.

Mamlakatimizda pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida 2025-yil 1-yanvardan boshlab barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida malaka oshirishning "Kasbiy rivojlanish soati" bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi.¹ Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishini ta'minlash, ularning pedagogik salohiyatini oshirish va zamonaviy o'quv-tarbiya talablariga moslashuvchanligini shakllantirish bugungi ta'lim sohasining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, milliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi ta'lim sifati va natijadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonlik olimlardan G'. Yo'ldoshev, M. Isroilov, R. Jo'rayevlarning asarlarida boshlang'ich ta'lim tizimidagi o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, innovatsion texnologiyalarni qo'llash amaliyoti va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida kasbiy rivojlanish soatlarini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlar va pedagogik sharoitlar tahlil etilgan.

Bundan tashqari, xalqaro tajribada, xususan, UNESCO, OECD va boshqa tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hisobotlar va tavsiyalarda o'qituvchilarning kasbiy o'sishini ta'minlovchi tizimiy yondashuvlar, o'quv-modul asosidagi treninglar va mentorlik dasturlarining ahamiyati alohida ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 246-son buyrug'i bilan Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etish tartibi belgilab qo'yildi.² Ushbu buyrug'ga asosan, haftaning 6 kuni fanlar kesimida taqsimlanib, "Kasbiy rivojlanish soati" tashkil etiladigan kunlar belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o'qituvchilarning, xususan, boshlang'ich sinf pedagoglarining kasbiy rivojlanishiga alohida

¹ <http://lex.uz/uz/docs/-6981085v>

² <https://xalqtaлимinfo.uz/document-show/105>

e'tibor qaratilmoqda. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi 2017–2024- yillar davomida bir necha bosqichda isloh qilindi. Quyida ushbu jarayondagi asosiy bosqichlar va o'zgarishlar keltirilgan:

1. Normativ-huquqiy asoslarning yangilanishi

2018- yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun, shuningdek, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida o'qituvchilarning malaka oshirish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirildi. 2020- yilda tasdiqlangan *"O'qituvchilarning malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi"* bu boradagi islohotlarga strategik yo'nalish berdi.

2. Modul va masofaviy ta'limga o'tish

2020–2021- yillarda pandemiya sharoitida o'qituvchilarning malaka oshirish kurslari masofaviy shaklda o'tkazila boshlandi. Bu esa tizimni raqamlashtirishga turtki bo'ldi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zamonaviy metodikalarga oid onlayn kurslar va vebinarlar yo'lga qo'yildi.

3. Amaliyotga yaqin, ehtiyojga yo'naltirilgan kurslar

2022- yildan boshlab malaka oshirish kurslari faqat nazariy bilimlarga emas, balki **amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga** qaratila boshlandi. Trening va seminarlar o'qituvchilarning amaliy faoliyatida duch keladigan real muammolar asosida tuzilmoqda.

4. Diferensial va individual yondashuvlar

Yangi tizimda o'qituvchilarning tajribasi, bilim darajasi va ehtiyojlariga qarab malaka oshirish kurslari **individual tarzda** rejalashtirilmoqda. Masalan, ilg'or o'qituvchilarga mentorlik va trenerlik faoliyatini yuritish imkoniyatlari yaratilmoqda.

5. O'z-o'zini rivojlantirishga rag'batlantirish

Malaka oshirish faqat rasmiy kurslar bilangina cheklanmay, o'qituvchining mustaqil o'qishi, innovatsiyalarni o'zlashtirishi va tahliliy faoliyati ham hisobga olinadigan tizim shakllanmoqda. Bu jarayonlarda o'quvchilar portfeli va faoliyat natijalari asosiy mezonlardan biri sifatida baholanmoqda.

6. Hamkorlik va xalqaro tajriba integratsiyasi

2021–2024 yillar davomida xalqaro tashkilotlar (UNESCO, UNICEF, British Council, JICA va boshqalar) bilan hamkorlikda boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun treninglar, master-klasslar, malaka oshirish dasturlari amalga oshirildi. Bu esa xalqaro tajribalarni milliy kontekstga moslashtirish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning, ayniqsa boshlang'ich sinf pedagoglarining kasbiy rivojlanishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari nafaqat bilim beruvchi, balki bolaning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi pedagogdir. Shu sababli ularning malaka va metodik tayyorgarligi uzluksiz rivojlantirib borilishi zarur.

Kasbiy rivojlanish soatlari — bu o'qituvchining o'z faoliyati mobaynida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, fan yutuqlari, axborot-kommunikatsiya vositalarini o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash malakasini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik jarayondir.

Mazkur soatlarning mazmunan boy, metodik jihatdan asoslangan va amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi ta'lim tizimi islohoti samaradorligini belgilovchi omildir.

Bugungi kunda respublikamizda malaka oshirish kurslari Davlat pedagogika institutlari, Malaka oshirish markazlari, pedagogik innovatsiya va axborot texnologiyalari markazlari tomonidan tashkil etilmoqda. Shuningdek, masofaviy ta'lim formatida onlayn vebinarlar, virtual laboratoriyalar va interaktiv kurslar orqali ham kasbiy rivojlanish imkoniyatlari yaratilgan.

Shunga qaramasdan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida olib borilgan so'rovnoma va kuzatishlar kasbiy rivojlanish soatlarining ba'zi jihatlarida samaradorligi pastligicha qolayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, ayrim hududlardagi o'qituvchilar bu kurslarni formal jarayon sifatida qabul qilayotganligi, mavzularning ularning amaliy faoliyatiga to'liq mos kelmasligi yoki an'anaviy metodikalarga tayanayotgani kabi muammolar kuzatilmoqda.

Tadqiqot doirasida Toshkent, Andijon va Navoiy viloyatlaridagi 12 ta maktabda faoliyat yuritayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Unda jami 110 nafar o'qituvchi qatnashdi. So'rovnoma natijalari quyidagicha bo'ldi:

- **67%** o'qituvchilar kasbiy rivojlanish soatlari mavzularining ularning amaliy faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri mos kelmasligini ta'kidladilar.

- **72%** respondent zamonaviy metodik yondashuvlar va AKT bo'yicha yetarli darajada chuqurlashtirilgan mashg'ulotlar mavjud emasligini bildirdi.

- **59%** o'qituvchilar masofaviy kurslar formatining interaktivlik va muloqot yetishmasligi sababli unchalik samarali emasligini ta'kidladi.

- Shu bilan birga, **83%** o'qituvchilar kasbiy rivojlanish soatlariga ehtiyoj borligini, ayniqsa, amaliy treninglar va tajriba almashish formatida tashkil etilsa, ularning kasbiy o'sishiga kuchli turtki bo'lishini qayd etdilar.

Shuningdek, kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, ilg'or tajribalarni tatbiq qilayotgan maktablarda kasbiy rivojlanish mashg'ulotlari quyidagi shakllarda muvaffaqiyatli tashkil etilmoqda:

- Mini-treninglar va ustoz-shogird tizimida o'zaro o'rganish.
- Praktikumlar va dars tahlili asosidagi metodik mashg'ulotlar.
- Faol va reflektiv yondashuv asosida muammo yechish mashg'ulotlari.
- O'qituvchilarning portfellarini yuritish va individual o'sish yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Ushbu natijalar asosida kasbiy rivojlanish soatlarining mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, ularni o'qituvchilarning real ehtiyojlariga asoslangan holda tashkil etish, shuningdek, innovatsion usullar va motivatsion yondashuvlar orqali tizimlashtirish lozimligi ko'rinmoqda.

Dunyoning ilg'or ta'lim tizimlariga ega mamlakatlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uzluksiz, tizimli va ehtiyojga yo'naltirilgan tarzda yo'lga qo'yilgan. Ularning tajribasi O'zbekistondagi amaliyot uchun qimmatli namuna bo'la oladi.

1. Finlyandiya tajribasi

Finlyandiya o'qituvchilar jamiyatda yuqori maqomga ega bo'lib, ularning kasbiy rivojlanishi doimiy ilmiy-tadqiqot asosida amalga oshiriladi. Har bir o'qituvchi yiliga kamida 3 hafta davomida **amaliy tadqiqotlar, yangi metodlar va tajriba almashish** orqali o'z malakasini oshiradi. Kasbiy rivojlanish faoliyatlari o'qituvchilarning o'zlari tomonidan rejalashtiriladi va aksariyat hollarda **jamoaviy refleksiylar**, dars tahlillari, loyiha asosidagi mashg'ulotlar ko'rinishida o'tadi.

2. AQSh tajribasi

AQShda kasbiy rivojlanish (Professional Development) faoliyatlari maktab, tuman va shtat darajasida **mahalliy ehtiyojlar asosida** tashkil etiladi. O'qituvchilar o'z faoliyatiga oid muammolar bo'yicha maxsus seminarlar, vebinarlar, mentorlik dasturlarida qatnashadilar.

"**Peer Coaching**" (o'qituvchilararo murabbiylik) va "**Lesson Study**" (darsni birgalikda tahlil qilish) metodlari keng qo'llaniladi.

3. Janubiy Koreya tajribasi

Janubiy Koreyada o'qituvchilar har 3 yilda kamida bir marotaba **sertifikatli kasbiy rivojlanish kurslarida** qatnashishlari shart. Bular davlat tomonidan bepul tashkil etiladi.

Maxsus "e-Hakseup" platformasi orqali o'qituvchilarning onlayn o'quv faoliyati monitoring qilinadi. Shuningdek, o'qituvchilar o'zlari ishlab chiqadigan dars ishlanmalari uchun **grantlar va rag'batlar** oladilar.

4. Singapur tajribasi

Singapurda har bir o'qituvchiga yiliga o'rtacha 100 soatdan ortiq kasbiy rivojlanish uchun imkoniyatlar yaratiladi. Ular o'z ixtisosliklari bo'yicha chuqurlashtirilgan modullarda ishtirok etadilar. Ta'lim vazirligi tomonidan o'qituvchilarga mo'ljallangan "**Teacher Growth Model**" ishlab chiqilgan bo'lib, bunda o'qituvchining kasbiy rivojlanish yo'li bosqichma-bosqich belgilangan.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanish soatlarini tizimli va samarali tashkil etish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Mavjud amaliyotda kasbiy rivojlanish mashg'ulotlari ko'pincha formal xarakterda o'tmoqda, bu esa o'qituvchilarning real ehtiyojlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan bog'liq talablariga to'liq javob bermaydi.

Kasbiy rivojlanish soatlarini takomillashtirish uchun quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kasbiy rivojlanish faoliyati o'qituvchilarning amaliy muammolariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, ya'ni darsda uchrayotgan real holatlar asosida tahliliy va reflektiv mashg'ulotlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.
2. O'qituvchilar ehtiyojiga asoslangan individual rivojlanish rejalari ishlab chiqilishi, ularni bosqichma-bosqich kuzatib borish tizimi yo'lga qo'yilishi lozim.
3. Ilg'or xorijiy tajriba asosida faol metodlar – ustoz-shogirdlik, dars tahlili, loyiha asosida o'rganish kabi formatlar kasbiy rivojlanish soatlariga integratsiya qilinishi kerak.
4. AKT vositalaridan foydalanib masofaviy va gibrid formatdagi kurslar tashkil etilishi, ularning sifat monitoringi amalga oshirilishi muhim.
5. Mahalliy metodik markazlar faoliyati kuchaytirilib, joylarda professional o'sishga ko'maklashuvchi metodistlar tarmog'i shakllantirilishi zarur.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishini zamonaviy yondashuvlar asosida yo'lga qo'yish, ta'lim tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Kuzmina, H.B. & Mitina, J.I.M. (2000). **Pedagogical development of teachers: theory and practice**. Moskva: Publishing House "Pedagogika".
2. Zimnyaya, I.A. (2017). **Pedagogical competence of a modern teacher**. Saint Petersburg: Herzen University Press.
3. Shakirova, G.A. (2018). **Innovation in education: modern approaches**. Tashkent: National Publishing House.
4. Usmonov, F.X. (2019). **Methodical innovations in primary education**. Tashkent: Education Press.

5. Karimov, I.A. (2015). **Uzbekistan's educational reforms and their impact on teaching quality**. Tashkent: Uzbekistan Academy of Sciences Press.
6. Ismoilov, B. (2020). **ICT in teaching: prospects and challenges in the context of Uzbekistan**. Tashkent: Innovative Education Press.
7. Blokhin, A.V. (2016). **Modern methods in primary education: theoretical and practical aspects**. Moscow: Academy of Pedagogical Sciences.
8. UNESCO. (2016). **Global Education Monitoring Report: Education for people and planet. Creating sustainable futures for all**. Paris: UNESCO Publishing.
9. Pishchikova, E.Yu. (2017). **The role of continuous professional development in enhancing teacher performance**. Moscow: Moscow State University Press.
10. The World Bank. (2021). **Education and Training: Supporting Teachers in the Digital Age**. Washington, D.C.: The World Bank Group.